



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023-yil yanvar-may holatiga



## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 3 ta murojaat kelib tushgan**

**To'g'ridan to'g'ri murojaatlar soni 35 tani tashkil etgan**

**Viloyat statistika boshqarmasiga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 59 ta murojaat kelib tushgan**

**Boshqarma ishonch telefoni orqali 1 ta murojaat kelib tushgan**


**Rahbariyat sayyor qabullaridagi og'zaki murojaatlar soni 20 tani tashkil etgan**



# MUROJAATLAR :

(mazmun-mohiyati bo'yicha)

## KELIB TUSHGAN MUROJAATLARNING MAZMUN-MOHİYATI YUZASIDAN QILINGAN TAHLILLARGA KO'RA:



8 (13,6 %)

Korxonalar va tashkilotlarning yagona Davlat registr bazasiga oid masalalar yuzasidan

4 (6,8 %)

Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish yuzasidan

9 (15,3 %)

Statistik hisobotlarni taqdim etish tartibiga oid masalalar yuzasidan

22 (37,2 %)

Taqdim etilgan hisobotga asosan, ko'rsatkichlarni taqdiqlab berish yuzasidan

12 (20,3 %)

Statistika sohasiga oid ma'lumotlarni olish yuzasidan


4 (6,8 %)

Boshqa masalalar yuzasidan



# HUDUDLAR BO'YICHA TAQQOSLAMA TAHLIL:

2023-yilning yanvar-may holatiga




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 6 tasi (jamiga nisbatan 10,2 %) Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, Qo'qon shahridan 2 ta (3,4 %), Quvasoy shahridan 5 ta (8,5 %), Bag'dod tumanidan 8 ta (13,5 %), Beshariq tumanidan 4 ta (6,8 %), Buvayda tumanidan 5 ta (8,5 %), Uchko'prik tumanidan 2 ta (3,4 %), Farg'ona tumanidan 5 ta (8,5 %), Furqat tumanidan 5 ta (8,5 %), O'zbekiston tumanidan 4 ta (6,8 %), Qo'shtepa tumanidan 5 ta (8,5 %), Yozyovon tumanidan 3 ta (5,1 %), Rishton tumanidan 4 ta (6,8 %) va boshqa hududdan 1 ta (1,7 %) murojaatlar kelib tushgan.

Viloyat statistika boshqarmasida kelib tushgan murojaatlarning 55 tasi qanoatlantirildi, 4 tasi tushuntirildi. Ko'rib chiqilayotgan va rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

2023-yil



## MUROJAAT TURLARI BO'YICHA



Tahlillarga ko'ra, jami-ga nisbatan 74,6 foiz (44 ta) yuridik shaxslar va 25,4 foiz (15 ta) jismoniy shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



# **Eslatib o'tamiz:**

**O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi? U holda quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:**

**Ishonch telefonlari:**

**(73) 241-97-99 / (73) 241-98-24**

**Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyariga bevosita murojaat etish:**

**(73) 241-98-29**

**Boshqarma veb sayti – [farstat.uz](http://farstat.uz)**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga [pm.gov.uz](http://pm.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin**

**Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul S. Meliqo'ziyev.**